



2023-yil yanvar-sentabr oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



## ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
74 228-30-57



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-yil yanvar-sentabr oylarilarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3 616,5 mln. AQSh dollariga yetdi va 2022-yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 562,9 mln. AQSh dollariga yoki 13,9 % ga ko'paydi.**



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar- sentabr, mln. AQSh dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **3 616,5** - **13,9 %**

(2022- y.: **3 175,1**)



Saldo

2023- y.: - **1 877,1** (2022 y.: - 1 445,0)



### Eksport

2023- y.: **869,7** - **0,5 %**

(2022- y.: **865,0**)



Tovarlar: **861,1**



Xizmatlar: **8,6**



### Import

2023- y.: **2 746,8** - **18,9 %**

(2022- y.: **2 310,1**)




Tovarlar: **2 681,4**



Xizmatlar: **65,4**











**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi **869,7** mln. AQSh dollariga **0,5** % ga ko‘paydi) va import hajmi **2 746,8** mln. AQSh dollariga (**18,9** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **1 877,1** mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR

(2023-yil yanvar- sentabr, mln. AQSh dollari)

<p><b>Koreya Respublikasi</b></p> <p>TSA – 1 030,8</p> <p>Eksport: 0,2 Import: 1 030,6</p> <p> 28,5%</p>	<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 944,4</p> <p>Eksport: 51,5 Import: 892,9</p> <p> 26,1%</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 403,4</p> <p>Eksport: 396,7 Import: 6,7</p> <p> 11,2%</p>	<p><b>Rossiya Federatsiya</b></p> <p>TSA – 234,1</p> <p>Eksport: 165,1 Import: 69,0</p> <p> 6,5%</p>	<p><b>Qirg‘iz Respublikasi</b></p> <p>TSA – 179,8</p> <p>Eksport: 150,4 Import: 29,4</p> <p> 5,0%</p>
<p><b>Braziliya</b></p> <p>TSA – 175,4</p> <p>Eksport: 0,1 Import: 175,3</p> <p> 4,8%</p>	<p><b>Meksika</b></p> <p>TSA – 146,8</p> <p>Eksport: - Import: 146,8</p> <p> 4,1%</p>	<p><b>AQSH</b></p> <p>TSA – 126,2</p> <p>Eksport: 0,3 Import: 125,9</p> <p> 3,5%</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 80,4</p> <p>Eksport: 22,1 Import: 58,3</p> <p> 2,2%</p>	<p><b>Hindiston</b></p> <p>TSA – 43,6</p> <p>Eksport: 0,001 Import: 43,6</p> <p> 1,2%</p>

Andijon viloyati jahonning **80** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (**28,5 %**), XXRda (**26,1 %**), Qozog'istonda (**11,2 %**), Rossiya Federatsiyasida (**6,5 %**), Qirg'iz Respublikasida (**5,0%**) va Braziliyada (**4,8 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Qozog'iston va Tojikiston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston 8,4 barobarga oshdi.



## TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT

(2023-yil yanvar- sentabr mln. AQSh dollari)



Qozog'iston – 403,4



Qirg'iz Respublikasi – 179,8



Tojikiston – 18,9























Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>918,0</b>	<b>1 230,4</b>	<b>1 030,8</b>
 <i>Eksport</i>	0,5	0,7	0,2
<i>Import</i>	917,5	1229,7	1030,6
<b>XXR</b>	<b>310,6</b>	<b>477,4</b>	<b>944,4</b>
 <i>Eksport</i>	70,4	51,6	51,5
<i>Import</i>	240,2	425,8	892,9
<b>Qozog'iston</b>	<b>255,0</b>	<b>326,6</b>	<b>403,4</b>
 <i>Eksport</i>	247,5	320,8	396,7
<i>Import</i>	7,5	5,8	6,7
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>170,6</b>	<b>343,5</b>	<b>234,1</b>
 <i>Eksport</i>	55,0	118,7	165,1
<i>Import</i>	115,6	224,8	69,0
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>230,6</b>	<b>314,2</b>	<b>179,8</b>
 <i>Eksport</i>	206,2	289,2	150,4
<i>Import</i>	24,4	25,0	29,4
<b>Braziliya</b>	<b>9,6</b>	<b>35,7</b>	<b>175,4</b>
 <i>Eksport</i>	0,01	0,3	0,1
<i>Import</i>	9,6	35,4	175,3
<b>Meksika</b>	<b>4,1</b>	<b>36,8</b>	<b>146,8</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	4,1	36,8	146,8
<b>AQSh</b>	<b>53,9</b>	<b>60,9</b>	<b>126,2</b>
 <i>Eksport</i>	0,3	0,2	0,3
<i>Import</i>	53,6	60,7	125,9
<b>Turkiya</b>	<b>65,4</b>	<b>84,6</b>	<b>80,4</b>
 <i>Eksport</i>	17,9	34,0	22,1
<i>Import</i>	47,5	50,6	58,3
<b>Hindiston</b>	<b>12,0</b>	<b>29,9</b>	<b>43,6</b>
 <i>Eksport</i>	0,2	0,7	0,001
<i>Import</i>	11,8	29,2	43,6

Davlatlar		2021-y.	2022-y.	2023-y.
	<b>Germaniya</b>	<b>15,7</b>	<b>28,8</b>	<b>34,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,8	0,6	0,3
	<i>Import</i>	14,9	28,2	34,1
	<b>Belarus</b>	<b>3,3</b>	<b>6,1</b>	<b>28,1</b>
	<i>Eksport</i>	1,3	2,2	23,1
	<i>Import</i>	2,0	3,9	5,0
	<b>Slovakiya</b>	<b>4,9</b>	<b>8,3</b>	<b>21,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,001	0,0
	<i>Import</i>	4,9	8,3	21,4
	<b>Tojikiston</b>	<b>3,0</b>	<b>5,2</b>	<b>18,9</b>
	<i>Eksport</i>	1,3	4,1	18,5
	<i>Import</i>	1,7	1,1	0,4
	<b>Ozarbayjon</b>	<b>3,4</b>	<b>11,6</b>	<b>17,7</b>
	<i>Eksport</i>	2,6	11,2	17,7
	<i>Import</i>	0,8	0,4	0,0
	<b>Italiya</b>	<b>10,7</b>	<b>12,0</b>	<b>13,7</b>
	<i>Eksport</i>	2,2	3,9	3,8
	<i>Import</i>	8,5	8,1	9,9
	<b>Chexiya</b>	<b>10,9</b>	<b>13,7</b>	<b>12,5</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,0
	<i>Import</i>	10,9	13,6	12,5
	<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>7,8</b>	<b>7,4</b>	<b>12,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,5	1,0	3,7
	<i>Import</i>	7,3	6,4	8,4
	<b>Polsha</b>	<b>9,0</b>	<b>8,4</b>	<b>11,9</b>
	<i>Eksport</i>	1,0	0,9	0,5
	<i>Import</i>	8,0	7,5	11,4
	<b>Vetnam</b>	<b>2,4</b>	<b>0,6</b>	<b>9,7</b>
	<i>Eksport</i>	0,4	0,003	0,02
	<i>Import</i>	2,0	0,6	9,7



## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023-yil yanvar-sentabr)\*

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>3 616,5</b>	<b>113,9</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	513,3	118,4	14,2
Xonobod sh.	75,9	122,3	2,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	58,5	334,2	1,6
Andijon	81,7	126,0	2,3
Baliqchi	37,3	97,1	1,0
Bo'ston	19,2	77,4	0,5
Buloqboshi	134,3	556,6	3,7
Jalaquduq	34,8	71,6	1,0
Izboskan	17,4	76,6	0,5
Ulug'nor	16,7	87,3	0,5
Qo'rg'ontepa	38,3	58,5	1,1
Asaka	2 368,2	112,8	65,5
Marhamat	20,5	87,5	0,6
Shahrixon	68,5	89,8	1,9
Paxtaobod	19,2	87,0	0,5
Xo'jaobod	112,0	85,2	3,1

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSh dollari



Eng quyi hajm,  
mln. AQSh dollari




Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **65,5 %** ulush bilan **2 368,2** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Ulug'nor tumani **0,5 %** ulush bilan **16,7** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



## ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2023-yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **24,7** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022-yilning mos davriga nisbatan **12,0** % ga kamayib, so'ngi uch yilda o'rtacha ko'rsatkichni qayd etdi.



Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 2022-yilning mos davriga nisbatan **26,1** % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **75,3** % ni tashkil etdi.



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, **895,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **780,8** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **114,2** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



### ANDIJON VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

#### Rossiya Federatsiyasi

TSA – 234,1  
Eksport – 165,1  
Import – 69,0



#### Qozog'iston

TSA – 403,4  
Eksport – 396,7  
Import – 6,7



#### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 179,8  
Eksport – 150,4  
Import – 29,4



#### Ozarbayjon

TSA – 17,7  
Eksport – 17,7  
Import – 0,0



#### Belarus Respublikasi

TSA – 28,1  
Eksport – 23,1  
Import – 5,0



#### Tojikiston

TSA – 18,9  
Eksport – 18,5  
Import – 0,4



#### Moldova Respublikasi

TSA – 1,6  
Eksport – 1,2  
Import – 0,4



#### Ukraina

TSA – 6,7  
Eksport – 3,8  
Import – 2,9



#### Turkmaniston

TSA – 3,7  
Eksport – 3,4  
Import – 0,3



#### Armaniston


TSA – 0,9  
Eksport – 0,9  
Import – -



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushi Qozog'iston (**45,1** %), Rossiya Federatsiyasi (**26,2** %) hamda Qirg'iz Respublikasi (**20,1** %) bilan qayd etildi.

## ANDIJON VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **846,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi **736,2** mln. AQSh dollari, import hajmi esa **110,1** mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## ANDIJON VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **389** taga yetdi va ular tomonidan **869,7** mln. AQSh dollari qiymatidagi (2022-yilning mos davriga nisbatan **0,5 %** ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln. AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>865,0</b>	<b>869,7</b>	<b>137,4</b>	<b>100,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	30,5	30,3	108,9	99,0	3,6	3,5
Ichimliklar va tamaki	0,9	5,0	7,3 b.	5,7 b.	0,1	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,2	3,4	46,3	80,0	0,5	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	10,2	0,7	120,8 b.	7,4	1,2	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	99,0	30,7	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	16,3	15,8	10,2 b.	96,7	1,9	1,8
Sanoat tovarlari	219,1	189,4	136,5	86,5	25,3	21,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	330,7	390,7	129,2	118,1	38,2	44,9
Turli xil tayyor buyumlar	245,0	225,8	144,5	92,2	28,3	25,9
Xizmatlar	8,1	8,6	182,4	106,2	0,9	1,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,0 %** ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalari (**44,9 %**), turli xil tayyor buyumlar (**25,9 %**), sanoat tovarlari (**21,8 %**), kimyoviy vositalar (**1,8 %**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**3,5 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-sentabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	29 099,2	99,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	651,4	88,6
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	312,0	61,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	160,9	7,4 b.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	4 985,7	5,7 b.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 500,8	68,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	368,5	175,2
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	320,7	106,3
56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	111,4	147,1
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	753,0	7,5
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	0,2	31,8
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	-	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	14 133,2	106,3
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojaxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	501,2	4,0 b.
Noorganik kimyo moddalari	493,5	144,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	226,1	37,0


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	173 693,9	95,8
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	5 289,0	27,4
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4 079,0	41,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 522,7	60,2
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar (shu jumladan, havo transporti vositalari)	256 886,1	126,8
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	117 847,5	103,2
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	7 771,6	94,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	6 151,9	118,3
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	208 767,8	94,1
Poyabzal	11 247,0	77,7
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 181,0	85,3
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1 828,5	49,6

Andijon tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlarga **780,8** mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportdagi ulushi **89,8 %** ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2023-yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, XXR, Turkiya, Belarus va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **95,1 %** ni tashkil etdi.



## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023-yil yanvar-sentabr, % da)





## ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-sentabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Qozog'iston	320,8	396,7	129,6	123,7	1	1
Rossiya Federatsiyasi	118,7	165,1	2,2 b.	139,1	3	2
Qirg'iziston	289,2	150,4	140,3	52,0	2	3
Xitoy	51,6	51,5	73,2	99,8	4	4
Belarus	2,2	23,1	167,7	10,2 b.	12	5
Turkiya	34,0	22,1	190,2	65,0	5	6
Tojikiston	4,1	18,6	3,3 b.	4,5 b.	8	7
Ozarbayjon	11,2	17,7	4,2 b.	158,3	6	8
Italiya	3,9	3,8	181,6	97,3	9	9
Ukraina	3,1	3,8	33,6	124,0	11	10
Eron Islom Respublikasi	1,0	3,7	186,7	3,9 b.	15	11
Turkmaniston	0,3	3,4	32,9	12,3 b.	28	12
Litva	0,0	2,0	7,8	56,8 b.	38	13
Moldova Respublikasi	3,7	1,2	104,3	32,1	10	14
Armaniston	0,1	0,9	179,8	10,7 b.	35	15
Afg'oniston	10,5	0,9	4,3 b.	8,4	7	16
Bangladesh	0,3	0,8	7,0 b.	2,8 b.	26	17
Latviya	1,1	0,8	174,7	71,1	14	18
Pokiston	1,6	0,5	78,5	31,3	13	19
Polsha	0,9	0,5	95,6	56,1	24	20






## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023-yil yanvar-sentabr)\*

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>869,7</b>	<b>100,5</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	80,7	116,7	9,3
Xonobod sh.	18,4	62,6	2,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	40,7	338,3	4,7
Andijon	36,8	135,0	4,2
Baliqchi	34,5	119,1	4,0
Bo'ston	17,4	73,6	2,0
Buloqboshi	9,4	55,6	1,1
Jalaquduq	29,2	66,5	3,4
Izboskan	9,7	62,0	1,1
Ulug'nor	14,7	117,5	1,7
Qo'rg'ontepa	19,1	46,7	2,2
Asaka	430,3	114,1	49,5
Marhamat	11,8	70,6	1,4
Shahrixon	37,1	90,0	4,3
Paxtaobod	13,7	88,6	1,6
Xo'jaobod	65,5	70,4	7,5

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSh dollari



Eng quyi hajm,  
mln. AQSh dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **49,5** % bilan **430,3** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Buloqboshi tumani **1,1** % bilan **9,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023-yil yanvar-sentabr oylarida **111,6** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan **24,4** ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (**55,8** %), Rossiya Federatsiyasi (**31,8** %), Qozog'iston (**7,4** %), Latviya (**2,4** %) hamda Turkiya (**1,8** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **28,4 mln.** AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan **3,8** % ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi **3,3** % ni tashkil etdi.












## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023-yil yanvar-sentabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Uzum</b> (quritilgan uzumni qo'shgan holda)</p> <p><b>2,3 mln.</b> AQSH dollari</p> <p><b>5,2 ming tonna</b></p>  <p>↑ 90,3 %</p>	<p><b>Karam</b></p> <p><b>1,5 mln.</b> AQSH dollari</p> <p><b>7,1 ming tonna</b></p>  <p>↑ 89,4 %</p>	<p><b>Gilos</b></p> <p><b>0,6 mln.</b> AQSH dollari</p> <p><b>1,0 ming tonna</b></p>  <p>↓ 36,6 %</p>	<p><b>Pomidor</b></p> <p><b>1,9 mln.</b> AQSH dollari</p> <p><b>3,5 ming tonna</b></p>  <p>↓ 86,8 %</p>
<p><b>Shaftoli</b></p> <p><b>1,5 mln.</b> AQSH dollari</p> <p><b>2,2 ming tonna</b></p>  <p>↑ 60,4</p>	<p><b>Bodring</b></p> <p><b>1,4 mln.</b> AQSH dollari</p> <p><b>2,2 ming tonna</b></p>  <p>↑ 2,8 b.</p>	<p><b>Qovun va tarvuz</b></p> <p><b>6,0 mln.</b> AQSH dollari</p> <p><b>38,7 ming tonna</b></p>  <p>↑ 1,4 b.</p>	<p><b>Piyoz</b></p> <p><b>2,1 mln.</b> AQSH dollari</p> <p><b>12,0 ming tonna</b></p>  <p>↑ 106,5 %</p>



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023-yil yanvar-sentabr)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	84 934,0	16 229,1	55,8
 Rossiya Federatsiyasi	11 176,9	9 242,3	31,8
 Qozog'iston	14 011,6	2 153,5	7,4
 Latviya	2 095,0	701,2	2,4
 Turkiya	280,0	535,7	1,8
 Belarus	112,5	192,9	0,7
 Germaniya	40,0	21,8	0,1
 Moldova Respublikasi	41,7	15,2	0,1
 Mongoliya	14,7	7,4	0,03

\* qiymat ifodasidan



2023-yil yanvar-sentabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **55,8** %), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan **1,8** barobar ko'p.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.








Xususan, 2023-yil yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha **381,3 mln.** AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **32,4 %** ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **30,4 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**54,5 %**), paxtadan yigirilgan ip (**26,1**), naqshli mato (**11,7 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **250** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **21** ta davlatiga eksport qilindi.

### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, ming AQSh dollari)



	2022-yil	2023-yil
<b>Jami:</b>	<b>404 577,8</b>	<b>381 321,1</b>
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	221 292,7	207 934,9
 Paxtadan yigirilgan ip	106 187,0	99 541,2
 Naqshli mato	38 559,5	44 627,6
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	9 746,4	7 947,3
 Gilamlar	7 020,7	6 243,2
 Paxtadan gazlamalar	5 369,8	5 328,9
 Ipak mahsulotlari	7 282,3	5 194,4

## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI *(yanvar-sentabr, ming AQSh dollari)*

	2022-yil	2023-yil	O‘shish sur‘ati, % da
 Rossiya Federatsiyasi	83,6	106,8	127,8
 Qirg‘iz Respublikasi	210,1	102,5	48,8
 Belarus	1,6	21,6	13,7 b.
 Qozog‘iston	5,2	17,9	3,4 b.
 Tojikiston	3,0	14,9	4,9 b.
 Italiya	3,9	3,8	97,3
 Ukraina	2,9	3,6	122,4
 Ozarbayjon	1,3	2,8	2,1 b.
 XXR	51,3	2,0	4,0
 Litva	-	1,9	-
 Moldova Respublikasi	3,5	1,1	30,1
 Turkiya	31,9	0,7	2,4
 Armeniya	0,1	0,7	11,5 b.
 Afg‘oniston	-	0,5	-
 Eron Islom Respublikasi	0,9	0,4	37,7
 Boshqalar	5,3	0,6	10,4




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozorida ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (**28,0 % – 106,8 mln. AQSh dollari**), Qirg‘iz Respublikasi (**26,8 % – 102,5 mln. AQSh dollari**) va davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **8 616,6** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **1,0** % ini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **6,2** % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (**48,3** %), moliyaviy xizmatlar (**44,7** %), safarlar (turizm) (**6,8** %) va transport xizmatlar (**0,2** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## ANDIJON VILOYATINING IMPORTI




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi **2 746,8** mln. AQSh dollarini va 2022-yilning mos davriga nisbatan **18,9** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**65,5** %), sanoat tovarlari (**18,2** %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**8,0** %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023-yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **515,8** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **2 681,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **65,4** mln. AQSh dollariga yetdi.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln. AQSh dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>2 310,0</b>	<b>2 746,8</b>	<b>149,6</b>	<b>118,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,7	15,7	77,9	134,0	0,5	0,6
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,3	33,8	194,8	0,01	0,01
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	16,5	18,2	111,2	109,9	0,7	0,7
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	10,3	23,4	130,4	2,3 b.	0,5	0,8
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,2	2,6	20,4	1172,7	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	152,5	219,9	172,8	144,2	6,6	8,0
Sanoat tovarlari	518,4	499,7	194,4	96,4	22,4	18,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1352,6	1798,4	134,5	133,0	58,6	65,5
Turli xil tayyor buyumlar	81,7	103,2	129,9	126,3	3,5	3,7
Xizmatlar	165,9	65,4	2,2 b.	39,4	7,2	2,4





## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-sentabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	4 812,9	2,6 b.
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	3 307,1	77,1
Sabzavotlar va mevalar	2 397,6	160,0
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	1 840,7	2,2 b.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	253,8	194,8
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	5 924,1	111,2
Probka va yog'och-taxtalar	5 908,2	103,6
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	4 041,8	144,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 452,1	98,8
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Ko'mir, koks va briketlar	14 041,5	2,2 b.
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	8 390,4	2,2 b.
Tabiiy yoki sun'iy gaz	1 017,0	70,5 b.
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2 485,2	11,1 b.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	140,0	455,9 b.
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyo moddalari	70 577,2	148,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	45 603,1	123,8
Birlamchi shakldagi plastmassalar	42 958,2	156,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	22 935,1	140,8


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	162 309,6	72,4
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	127 691,4	133,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	117 166,0	96,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	54 011,8	121,8
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	1 138 471,1	113,2
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	197 628,7	142,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	172 660,6	188,2
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	124 452,1	2,2 b.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	50 363,9	143,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	29 461,2	94,9
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	14 650,1	138,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	5 576,5	2,5 b.



2023-yil yanvar-sentabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **4,2 %** ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **48,0 %** ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2023-yil yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyati **71** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Braziliya, Meksika, AQSh, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya) jami importning **90,9 %** qismini tashkil etdi.



## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023-yil yanvar-sentabr, % da)





## ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)

Davlatlar	mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Koreya Respublikasi	1 229,7	1 030,6	134,0	83,8	1	1
Xitoy	425,8	892,9	177,3	209,7	2	2
Braziliya	35,4	175,3	369,7	495,2	8	3
Meksika	36,8	146,8	891,9	399,1	7	4
AQSh	60,7	125,9	113,2	207,4	5	5
Rossiya Federatsiyasi	224,8	69,0	194,4	30,7	3	6
Turkiya	50,6	58,3	106,5	115,0	6	7
Hindiston	29,2	43,6	247,0	149,4	9	8
Germaniya	28,2	34,1	188,9	121,0	10	9
Qirg'iziston	25,0	29,5	102,2	118,0	11	10
Slovakiya	8,3	21,4	168,6	257,2	13	11
Chexiya	13,6	12,5	124,7	92,0	12	12
Polsha	7,4	11,4	93,0	153,6	15	13
Italiya	8,1	9,9	94,8	122,4	14	14
Vetnam	0,6	9,7	29,0	1631,4	40	15
Tailand	7,2	9,4	64,3	129,9	16	16
Eron Islom Respublikasi	6,4	8,4	87,5	130,6	17	17
Qozog'iston	5,8	6,7	77,8	115,6	18	18
Tayvan	3,1	5,2	184,1	167,7	20	19
Belarus	3,9	5,0	197,8	130,5	19	20



## ANDIJON VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023-yil yanvar-sentabr)

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>2 746,8</b>	<b>118,9</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	432,6	204,5	15,7
Xonobod sh.	57,5	136,3	2,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	17,8	52,8	0,6
Andijon	44,9	110,6	1,6
Baliqchi	2,8	329,3	0,1
Bo'ston	1,8	65,7	0,1
Buloqboshi	124,9	125,4	4,5
Jalaquduq	5,6	78,9	0,2
Izboskan	7,7	223,3	0,3
Ulug'nor	2,0	69,0	0,1
Qo'rg'ontepa	19,2	167,4	0,7
Asaka	1 937,9	145,3	70,6
Marhamat	8,7	74,4	0,3
Shahrixon	31,4	137,9	1,1
Paxtaobod	5,6	120,9	0,2
Xo'jaobod	46,5	136,4	1,7

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari




**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **70,6** % bilan **1 937,9** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Bo'ston tumani **0,1** % bilan **1,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **65,4** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **2,4** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **60,6** % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi Intellectual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**67,0** %), amaliy xizmatlar (**19,8** %) ga tegishli bo'ldi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALAR IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023-yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **1 798,4** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022-yilning shu davriga nisbatan **33,0** % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **65,5** % ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023-yil yanvar-sentabr)




2023-yil yanvar-sentabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **415,8** mln. AQSh dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Andijon viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi (**726,1** mln. AQSh dollari, **40,4** %), XXR (**563,1** mln. AQSh dollari, **31,3** %), Meksika (**126,9** mln. AQSh dollari, **7,1** %) va Braziliya (**121,5** mln. AQSh dollari, **6,8** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI




2023-yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **499,7** mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,6** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **18,2** % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023-yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**162,3** mln. AQSh dollari), rezina buyumlari (**127,7** mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**117,2** mln. AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**54,0** mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.